

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDINI REJALASHTIRISHNING SHAHARSOZLIK SOHASIDAGI USTUVOR YO'NALISHLARNI BELGILAB BERISH AHAMIYATI

A.A.LAPASOV – “O‘zshaharsozlikLITI” BLI DM, Bosh direktorining shaharsozlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - institut bosh arxitektori

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O‘zbekiston Respublikasi hududini rejalashtirishda loyiha ishlarini bajarilishi maqsadi, ishlab chiqishda o‘rganiladigan jarayonlar va xolatlar, funksional zonalarga taqsimlash, erishiladigan natijalari hamda ushbu xujjatning shaharsozlik sohasidagi samaradorligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Demografiya, infratuzilma, regional, rekreatsion, markaz, shaharsozlik, magistral, funksional zona va b.

Аннотация. В данной статье рассмотрены цел реализации проектных работ при планировке территории Республики Узбекистан, изучаемые процессы и условия при разработке, разделение на функциональные зоны, результаты, которые необходимо достичь, и эффективность этого документ в градостроительство.

Ключевые слова: Демография, инфраструктура, региональная, рекреационная, центр, градостроительство, автодорога, функциональная зона и т.д.

Abstract. This article discusses the purpose of implementing design work when planning the territory of the Republic of Uzbekistan, the processes and conditions being studied during development, the division into functional zones, the results that need to be achieved, and the effectiveness of this document in urban planning.


Key words: Demographics, infrastructure, regional, recreational, center, urban planning, highway, functional zone, etc.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining hududini va hududining qismlarini rivojlantirishni rejalashtirish bu hududni funksional zonalarga taqsimlash, tabiiy, demografik, iqtisodiy, rekreatsion zaxiralar va transport hamda muhandislik infratuzilmasi imkoniyatlarini kompleks baholash, hududning regional tabiiy-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy va boshqa xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish, shuningdek muhit xavfsizligi va ekologik turg‘unligini ta‘minlash asosida oqilona rejali tashkillashtirilishini belgilaydigan loyiha hisoblanadi.



1-rasm. Iqlim xolati

O‘zbekiston Respublikasi hududini rejalashtirish sxemasi umumdavlat darajasidagi hududiy rejalashtirishning tarmoqli hujjatlarini, hududni aholini joylashtirishning Bosh sxemasi, sanoat, qishloq, o‘rmon va suv xo‘jaliklari, transport, muhandislik tizimlari, rekreatsion-sayyohlik va rekreatsion-kurort tizimlarini rivojlantirishning hamda tabiatni muhofaza qilish va madaniy meros ob‘ektlarining tarmoqli sxemalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Ushbu sxemasi 10 va 25 yillik amalga oshirish bosqichlariga ajratilgan holda 50 yillik hisobiy muddatga ishlab chiqiladi va u tasdiqlanganidan keyin 10-15 yildan so‘ng tuzatishlar (korrektura) kiritilishi mumkin bo‘ladi.




2-rasm. Zilzilaviylik xolati

O'zbekiston Respublikasi hududini rejalashtirish sxemasining loyihaviy materiallari tarkibining grafik chizmalarda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

a) Sxemani ishlab chiqish boshlanayotgan paytdagi holat bo'yicha zamonaviy foydalanish va funksional zonalashtirish sxemasi:

- Respublika, viloyatlarning chegaralari;
- urbanizatsiyalashgan hududlar (shahar aholi punktlari ko'proq joylashgan zonalar),
- qishloq xo'jalik hududlari, shu jumladan qishloq aholi punktlari hududlari;
- sanoat hududlari, transport va muhandislik tizimlari, maxsus vazifaga ega hududlar;
- rekreatsion hududlar (sayyohlik va kurort);
- tabiati muhofaza qilinadigan hududlar (qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari, o'rmonlar va foydali qazilmalar joylashgan boshqa yirik maydonlar, suv toshadigan zonalar).



3-rasm. Daryo va suv o'zanlari

b) hududni kompleks baholash sxemasi:

- hududni omillar majmui bo'yicha u yoki bu funksiyalar uchun afzal hisoblangan tumanlarga taqsimlash;

v) hududning shaharsozlik va iqtisodiy nuqtai nazarida baholanishining sxemasi:

- hududni nisbiy ko'rsatkichlarda ballar yoki qiymat indeksleri ko'rinishida shaharsozlik va iqtisodiy qiymati bo'yicha zonalashtirish;

g) funksional zonalashtirish konsepsiyasi:

- yuqorida sanab o'tilgan asosiy funksional zonalarini joylashtirish va ularning muvozanatli, turg'un rivojini ta'minlovchi rivojlanish yo'nalishlari;

d) hududni loyihaviy tashkillashtirish va funksional zonalashtirishning hisobiy muddatga mo'ljallangan sxemasi:

- hududdan funksional foydalanishni shaharsozlik bo'yicha tartibga solish zonalarini ajratgan holda hududdan bugungi kunda foydalanish va funksional zonalashtirish sxemasidagi shu elementlarning o'zi (urbanizatsiyalashgan hududlarni rivojlantirish, kam urbanizatsiyalashgan hududlarni shaharsozlik nuqtai nazarida o'zlashtirishni rag'batlantirish yoki cheklash, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanat manfaatlarini ko'zlagan holda urbanizatsiyalashmagan hududlarni shaharsozlik nuqtai nazarida o'zlashtirishni cheklash yoki rag'batlantirish);

ye) 10 va 25 yildan iborat oraliq davrlarga mo'ljallangan hududni loyihaviy tashkillashtirish va funksional zonalashtirish sxemasi:

- asosiy sxemadagi xuddi shu elementlar, ammo ko'rsatilgan davrlarga mo'ljallangan rivojlanish parametrlariga muvofiq ravishda;


j) oraliq davrlarga mo'ljallangan funksional zonalar hududidan foydalanish tartiblari sxemasi:

- funksional foydalanish bo'yicha reglamentatsiyalar belgilash (aholi yashashi va hordiq chiqarishi, har xil qurilish turlari, xo'jalik faoliyati va foydalanishning zonaning funksional maqsadiga mos kelishini ta'minlovchi boshqa ko'rsatkichlar uchun);

z) hududning muhandislik ta'minoti sxemasi, bosh muhandislik inshootlari va magistral kommunikatsiyalarni ko'rsatgan holda, loyihaviy tashkillashtirish va funksional zonalashtirish sxemasining nusxasida bajariladi;


i) transportni tashkillashtirish sxemasi:

- temiryo'l liniyalari, avtomobil yo'llarining asosiy tarmog'ini, aeroportlar, asosiy inshootlarga ega kemalar yuradigan daryolarni, transport yetib bora oladigan zonalarini va transport bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatgan holda loyihaviy tashkillashtirish va funksional zonalashtirish sxemasining nusxasida bajariladi.




4-rasm. Atrof-muxit holati

Tushuntirish xatida hududning shaharsozlik va funksional tashkillashtirilishi bo'yicha hozirgi holatining tahlili, umumdavlat darajasidagi hududiy loyihalashtirishning tarmoqli hujjatlari tahlili (aholini joylashtirish, rivojlantirish va xo'jalik tarmoqlari, transport, muhandislik tizimlari, rekreatsion tizimlarni joylashtirish sxemalari, tabiat va madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sxemalari), loyihaviy yechimlarning asoslari va xarakteristikallari, loyihaning asosiy qoidalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'lishi kerak.



5-rasm. Xududning rel'efi

Sxemaning grafikali materiallari shaharsozlikni rejalashtirishning kompyuter texnologiyalari asosida bajarilishi va davlat shaharsozlik kadastri hamda monitoringni yuritish maqsadlarida buyurtmachiga elektron tashuvchilarda (raqamli model ko'rinishida) berilishi lozim.



6-rasm. Magistral avto va temir yo'l tarmog'i

O'zbekiston Respublikasi hududini rejalashtirish Sxemasi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining taqdimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda tasdiqlanishga taqdim etilgunga qadar manfaatdor tarmoq vazirliklari, idoralari va tashkilotlari bilan, majburiy ravishda muvofiqlashtirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi hududini rejalashtirish sxemasi belgilangan tartibda tasdiqlangandan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rejalashtirish sxemalari va loyihalarini hamda shaharsozlik hujjatlarining keyingi bosqichlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda 676-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6119-son Farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi hududlarini va hududlarining qismlarini rivojlantirishni rejalashtirishga doir hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son qarori;
4. "Hududlarni rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" to'g'risidagi ShNQ 1.03.02-04*.
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Генеральный_план.